



QADIMGI OBIDALAR TARIXI

Meyliyeva Dilnura Siroj qizi

Oradan qancha asr o'tmasin, hali hamon, tarixiy obidalar yurtimizga ko'rk qo'shib kelyapti. Sayyohlar va yoshlarimizning bu obidalarga qiziqish sababi boy tarixga ega ekanligidir. Keling, o'tmishimizga bir nazar tashlab ko'ramiz.

Yurtimizda ko'plab obidalar bo'lib, aksariyati YUNESKO tashkiloti orqali muhofaaza qilinadi. Bu imoratlarining ko'pgina qismi Samarqand, Buxora, Xiva, Toshkent shaharlarida joylashgan.

"Dunyoning husni" deya tan olingan Samarqand shahrida 60 dan ortiq qadimgi obidalar bo'lib, ulardan eng mashhurlari Registon maydoni, Gur-e-Amir maqbarasi, Shohi Zinda majmuasi, Ulug'bek rasadxonasi, Bibixonim masjidi, Afrosiyob shahristoni va shu kabilaridir. Samarqandning ko'rkiga aylangan, Registon maydoni 15-16-asrlarda qurilgan bo'lib, u Ulug'bek madrasasi (1420), Sherdor madrasasi (1636) va Tillakori madrasasi (1660) ni o'z ichiga oladi. Registon maydoni temuriylar davrining yorqin me'morchilik uslubida qurilgan. Ushbu makon o'rta asrlarda shahar markazi, savdosotiq va diniy hayot markazlaridan biri bo'lgan. Ulug'bek rasadxonasi esa, 15-asrda Mirzo Ulug'bek tomonidan qurdirilgan. Ulug'bek rasadxonada 1018 ta yulduzning koordinatalarini sekstant yordamida aniqlagan. Rasadxonada olib borilgan ishlar dunyo astronomiyasiga anchagina hissa qo'shgan. Ushbu rasadxona haqidagi ko'plab ma'lumotlarni Ulug'bek tomonidan yozilgan "Ziji Jadidayi Ko'ragoniy" asarida uchratishimiz mumkin.

"Tangrining jamoli", "Islom dinining markazi", "Islom dinining quvvati" deya e'zozlangan qadimiy shahar Buxoro shahridir. Bu joyda ham eng qadimgi, boy tarixga ega imoratlar joylashgan. Misol qilib, Ark qal'asi, Ismoil Somoniy maqbarasi, Minorai Kalon, Masjidi Kalon, Sitorai Mohi Xosa kabi obidalarni kiritishimiz mumkin. Buxorodagi yana bir mashhur madrasa Mir Arab madrasasi hisoblanadi. Ushbu madrasa 16-asrda Buxoro hukmdori Ubaydullaxon tomonidan qurdirilgan. Madrasa Abdulloh Yamaniy (Mir Arab) nomi bilan bog'liq. Ma'lumotlarga qaraganda, madrasa ikki qavatli bolib, talabalarga ta'lim xonalaridan tashqari yotoqxonalar ham tashkil etilgan. Bundan tashqari, biz ushbu madrasada Mir Arab qabrini ham uchratishimiz mumkin.

Yana bir jannatmakon, qadimda "Ming gumbaz shahri" deya ulug'langan Xiva shahri hisoblanadi. Ushbu shaharni mil.avv 5-asrdagi qadimiy kitoblarda ham uchratishimiz mumkin. Bu joydagi obidalar ham arab me'morchiligida qurilgan bo'lib, millionlab turistlarni o'ziga jalb qilayotgan Kalta Minor, Ko'hna Ark, Islomxo'ja

minorasi, Muhammad Aminxon minorasi va yana boshqalaridir. Yana, Xiva shahrida Ichan va Dishan qal'alar ham bor. Ichan qal'a Xiva shahrining ichki qal'asi bo'lib, ushbu joyga 4 ta darvoza orqali kirilgan. Muhammad Aminxon ushbu minoraning g'arbiy qismidan Kalta Minor va Ko'hna Ark mavzeylarini qurdirgan. 1990-yilda Ichan qal'a Butunjahon yodgorliklari ro'yxatiga kiritildi. Dishan qal'aga keladigan bo'lsak, tashqi tarafda joylashgan va bu qal'aga 10 ta darvoza orqali kirilgan. Bu qal'ada hunarmandchilik va savdo rastalari ham bo'lgan ekan.

11-asrgacha Choch, Shosh, Binkat nomlari bilan atalib kelgan Toshkent shahri ham qadimiy shaharlardan biridir. Bugungi kunga qadar, Hazrati Imom majmuasi, Baroqxon va Mo'yi Muborak madrasalari saqlanib kelmoqda. Bundan tashqari, Toshkent shahrida ko'plab obidalar bo'lib, ulardan eng mashhuri Ko'kaldosh madrasasidir. Bu madrasa 16-asrda Darvishxon Ko'kaldosh tomonidan qurdirilgan. Tarixan, savdo va madaniyat markazi bo'lib xizmat qilgan, keyinchalik, madrasadan ilm olish maskani sifatida sovet davrida esa ombor vazifasida foydalanilgan.



Yuqoridagi obidalar o'zining qadimiyligi bilan barchaning e'tiborini tortib kelmoqda. Ushbu obidalarimiz xalqimizning o'tmishi, madaniyati va ma'naviy merosini aks etiruvchi bebaho boylikdir.